

Sultanov Xaytboy Eralievich,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrası professori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BADIIY TA'LIMDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK INNOVATSION USULLAR UYG'UNLIGI

UDK: 37.014.6;75.01

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_8_6](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_8_6)

SULTANOV X.E. BADIIY TA'LIMDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK INNOVATSION USULLAR UYG'UNLIGI

Mazkur maqolada an'anaviy ustoz-shogird usuli bilan zamonaviy innovatsion ta'lim usullarini uyg'unlashtirish orqali tasviriy san'at ta'limida nazariy va amaliy jihatlarni mustahkamlash masalalari o'rganiladi. Shuningdek, unda an'anaviy nusxa ko'chirish tajribasi va zamonaviy innovatsion yondashuvlari birlashtirilib, talabalarning shaxsiy rivojlanish rejasi, amaliy mashg'ulotlar, fanlar o'rtasida integratsiya va ijodiy muhitni shakllantirish jarayonlarida qo'llanilishi tahlil qilingan. Xalqaro tajriba va milliy an'analar tahlili natijalari asosida ta'lim jarayonida ustoz-shogird an'anasi va innovatsion pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash yo'llari tavsiya etiladi.

Tayanch so'z va tushunchalar: an'anaviy ustoz-shogird tizimi, innovatsion ta'lim, tasviriy san'at, integratsiya, klaster yondashuvi.

СУЛТАНОВ Х.Э. СОЧЕТАНИЕ ТРАДИЦИОННЫХ И СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

В статье рассматриваются вопросы укрепления теоретических и практических аспектов в образовании по изобразительному искусству путем объединения традиционного метода «учитель-ученик» с современными инновационными образовательными методами. Анализируется сочетание традиционного опыта копирования и современных инновационных подходов, их применение в процессах личностного развития студентов, практических занятий, междисциплинарной интеграции, формировании творческой среды. На основе результатов анализа международного опыта и национальных традиций рекомендуются пути интеграции традиции «учитель-ученик» и инновационных педагогических технологий в образовательный процесс.

Ключевые слова: традиционная система «учитель-ученик», инновационное образование, изобразительное искусство, интеграция, кластерный подход.

SULTANOV KH.E. COMBINATION OF TRADITIONAL AND MODERN PEDAGOGICAL INNOVATIVE METHODS IN ART EDUCATION

The article considers the issues of strengthening theoretical and practical aspects in fine arts education by combining the traditional teacher-student method with modern innovative educational methods. The article analyzes the combination of traditional copying experience and modern innovative approaches, their application in the processes of students' personal development, practical classes, interdisciplinary integration, and the formation of a creative environment. Based on the results of the analysis of international experience and national

traditions, the article recommends ways to integrate the teacher-student tradition and innovative pedagogical technologies into the educational process. Key words: traditional teacher-student system, innovative education, fine arts, integration, cluster approach.

Key words and concepts: traditional method, innovative approach, art education, teacher-student, cluster approach.

Kirish. Chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berayotgan jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida oliy ta'lim sifatini oshirish yo'llari va vositalarini izlash zamonaviy pedagogikaning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekistonda oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'limni modernizatsiya qilish zaruratidan kelib chiqib, an'anaviy o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqish va ularni yangi sharoitlarga moslashtirishga qodir bo'lgan malakali, ijodiy va tizimli fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashni talab etmoqda. Oliy badiiy-pedagogik ta'lim mazmunini takomillashtirish ta'lim jarayoniga zamonaviy ilmiy-metodik ta'minotning eng samarali usullarini izlash, ishlab chiqish va o'quv jarayoniga joriy etishga bog'liq bo'lib, unda nazariya va amaliyotni integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur maqolada talabalarning shaxsiy rivojlanish rejasi, amaliy mashg'ulotlar, fanlararo integratsiya va ijodiy muhitni shakllantirish kabi masalalarni hal etishda an'anaviy va innovatsion usullarni uyg'unlikda qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bunda ta'lim jarayonida an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar integratsiyasining pedagogik-nazariy asoslari yoritiladi.

Mavzu bo'yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili. Tasviriy va amaliy san'at ta'limi asrlar davomida ustoz-shogird an'alariga tayangan holda rivojlanib kelgan. Xorijiy va O'zbekistondagi tasviriy san'at ta'limida ustoz-shogird an'alarini asosida individual ta'lim tashkil etilishining tarixiy amaliyoti muhim ahamiyatga ega. San'at sohasida mahorati yetuk ustozning shogird tayyorlashi orqali bilim va mahoratini avlodlar avlodga yetkazish usuli har bir xalq madaniyatida muhim o'rin tutgan. Masalan, Yevropada o'rta asrlar davrida tasviriy san'at ustalari maxsus sex-

lar (gildiyalar) tarkibida shogird tayyorlaganlar. Renessans (Uyg'onish) davrida yosh rassomlar odatda 12–14 yoshdan ustalar ko'magida shogirdlikka qabul qilinib, 5–8 yil davomida amaliy mashg'ulotlar orqali tayyorlanar edi¹. Bu davrda ta'lim jarayonida nazariy bilimlarga nisbatan amaliy ko'nikmalar ustuvor bo'lgan, talabalar taniqli rassomlar asarlaridan nusxa ko'chirish orqali kasbiy mahoratni egallagan. Jumladan, mashhur rassomlar asarlaridan nusxa ko'chirish usuli an'anaviy akademik maktablarda rangtasvir va kompozitsiya asoslarini o'rgatishning samarali usuli sifatida tan olingan². Ustoz rahbarligida badiiy asarlardan nusxa ko'chirish shogirdlarga buyuk rassomlarning rangtasvir ishlash texnikasi va kompozitsion g'oyalarini chuqurroq tushunib yetish imkonini bergan. Ayniqsa tasviriy san'atni o'qitish tarixi individual tarbiya (vorisiylik)ga asoslangan holda rivojlangan bo'lib, bu jarayon har bir mamlakatning o'ziga xos badiiy an'alarini va ta'lim tizimida turlicha namoyon bo'lgan³. Shu tariqa, asrlar davomida amal qilib kelgan ustoz-shogird modeli badiiy mahoratni merosiy tarzda uzatishning eng ishonchli usuli sifatida o'zini namoyon etgan.

XVII-XVIII-asrlarga kelib Yevropada san'at ta'limi tizimida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi - an'anaviy ustoz-shogird usuli asta-sekin markazlashgan akademik ta'lim shakliga o'tishga

¹ <https://www.encyclopedia.com/humanities/encyclopedias-almanacs-transcripts-and-maps/art-education-and-training#:~:text=Apprenticeship,a%20salary%20from%20the%20master>

² Сенько Д.С. Метод копирования и его дидактические возможности // Вест. Витеб. гос. ун-та им. П.М. Машерова., 2000. – №3. – С. 62–66.

³ Костерина, А. Б. Концепт «учитель – ученик» в художественных культурах России, Запада и Востока / А. Б. Костерина, Н. А. Фатеева // Креативность гуманитарного образования: духовно-ценностные и интеллектуальные аспекты: сборник статей [по материалам 11-й Всероссийской научно-практической конференции, 20–21 ноября 2014 г., г. Екатеринбург] / Рос. гос. проф.-пед. ун-т. - Екатеринбург, 2014. - С. 240–247. <https://elar.rspvu.ru/handle/123456789/5805>

zamin yaratdi. Endi rassomlikka o'rgatishda faqat amaliyot emas, balki nazariy bilimlar ham muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Masalan, Leon Battista Albertining 1435-yilda yozilgan «Rangtasvir haqida» traktati rassomlikda geometriya va optika qonunlarini bayon etgan bo'lib, o'sha davrda yosh rassomlarning nazariy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilgan¹. XX-asr o'rtalariga kelib esa Yevropada bo'lganidek Amerika san'at ta'limi to'liq akademik tus olib, an'anaviy ustoz-shogird o'qitish tizimi sustlashib bordi. Rossiyada esa bugungi kunda ham rasmiy ta'lim muassasalari doirasida ustoz-shogird an'anasining zamonaviy shakli – «академическое наставничество» (akademik ustozlik) saqlanib kelmoqda. Zamonaviy Turkiya, Yaponiya kabi sharq mamlakatlarida g'arbcha akademik tasviriy san'at ta'limi ham yuksak rivojlangan bo'lsa-da, tasviriy san'at va hunarmandchilikda ustozlik an'analari hanuzgacha milliy qadriyatlar sifatida saqlanib kelinmoqda. Bu kabi ikki xil - norasmiy an'anaviy va rasmiy akademik ta'limning uyg'unlashuvi ushbu mamlakatlarda ustoz-shogird an'alarining zamonaviy sharoitda ham yashovchanligini ta'minlamoqda.

O'zbekiston hududida ham asrlar davomida tasviriy va amaliy san'at sohasidagi miniatyura san'ati, kulolchilik, zargarlik, xattotlik kabi an'anaviy badiiy ko'nikmalar ustozdan shogirdga o'tishi orqali rivojlanib kelgan. Asrlar mobaynida Hirot, Buxoro, Samarqand, Sheroz va Tabriz kabi an'anaviy miniatyura maktablarida ustozlar shogirdlariga ijodiy mahoratdan tashqari milliy qadriyatlar ham singdirib kelingan. Ustoz-shogird tizimi muhitida olingan tajribalar keyinchalik milliy rangtasvir asarlari yaratilishida muhim o'rin tutgan.

Yevropa va Sharq an'analari uyg'unligidagi ustoz-shogird tajribasi yurtimizda B. Jalolov, J. Umarbekov, A. Ikromjonov, Ya. Salpinkidi kabi boshqa ko'plab o'zbek rassomlari tomonidan davom ettirib kelinmoqda. Bugungi kun sharoitida esa individual ijodiy yondashuv va milliy uslublarga e'tibor davlat siyosati dara-

jasiga ko'tarildi. Ya'ni, zamonaviy O'zbekiston badiiy ta'limida an'anaviy ustoz-shogird metodi va akademik ta'limni uyg'unlashtirish orqali integratsion muhit yaratish dolzarb masalaga aylandi. Bugungi kunda ilmiy izlanishlar ustoz-shogird va kognitiv ustozlik modellarini o'qitishda samarali ekanligini tasdiqlaydi. Masalan, kognitiv psixologiya olamidagi olamshumul olim Govard Garner ta'kidlaganidek, ustoz-shogird usulini maktab sharoitiga oqilona kiritish talabalarning tushunish qobiliyatini faollashtirish va kengaytirishga olib keladi². Uning fikriga ko'ra, an'anaviy ustozlikka ta'lim tizimi omilini kiritish talabalarni to'laqonli rivojlantirishga yordam beradi.

Maqolaning ilmiy mohiyati. Darhaqiqat, zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonini axborot texnologiyalari davrida o'sib kelayotgan yoshlarning innovatsion imkoniyatlari va ajdodlarimizning tarixiy tajribalari, ma'naviy-madaniy qadriyatlar uyg'unligida tashkil etish juda muhim ahamiyatga ega. An'anaviy ustoz-shogird usulini zamonaviy individual yondashuvlar bilan uyg'unlashtirgan holda integratsiyalashgan ijodiy o'quv muhitini yaratish ayni paytda pedagogikaning muhim vazifasiga aylanmoqda. Hozirgi paytda tasviriy san'atni o'qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar (masalan, ijodiy yondashuvning sustligi, talabalarning shaxsiy uslubi rivojiga e'tibor kamligi va h.k.) mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish uchun an'anaviy nusxa ko'chirish amaliyotini innovatsion pedagogik individual yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish talab etiladi. Demak, Tasviriy san'at kompozitsiyasini o'rgatish jarayonini zamon talablari bilan uyg'unlashtirish zarurati mavjud.

Aslida nusxa ko'chirish jarayonida hozirgacha hech narsa o'zgagani yo'q, faqat unga yondashuvlar o'zgargan. Avvallari, nusxa ko'chirish imkon qadar kartinaning aslidan qarab ishlanardi. Bunda tekislikni kataklarga bo'lib yoki axta orqali ko'chirilgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu asarlarni izlab muzeylarga borishning hojati

¹ <https://www.encyclopedia.com/humanities/encyclopedias-almanacs-transcripts-and-maps/art-education-and-training#:~:text=Apprenticeship,a%20salary%20from%20the%20master>

² Cariño K. The Convergence of Traditional and Cognitive Apprenticeship as a Signature Pedagogy: A Case Study of Dance Choreographer, Lim Fei Shen // Signature Pedagogies for Professions in Arts and Design. – Singapore: Springer, 2025. – P. 55–73. [link.springer.com](https://link.springer.com/link.springer.com).

yo'q. Bugungi kompyuter texnologiyalarning rivojlanganligi sababli, asarni proyektor orqali xolstga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish imkoniyatlari mavjud. Undan tashqari asar yoki uning biror bo'lagini uning asl o'lchamida qog'ozga chiqarib olish mumkin. Bu undan nusxa ko'chirishni osonlashtiradi, lekin bu asarni yaratishning haqqoniy uslubini (grunt, rang surtmalari qo'yilishi ketma ketligi va texnikasi va h.k.) to'liq ochib bera olmaydi. Buning uchun asarning asl namunasini muzeylarda to'g'ridan-to'g'ri kuzatish, kompyuterda yuqori aniqlikdagi fotolar bilan solishtirib olib borilishi kerak bo'ladi. Nusxa ko'chirishdan faqat Yevropa akademik rangtasvirini o'rganish uchun emas, balki, Sharq miniatyura rangtasvir san'atini o'rganishda ham keng foydalaniladi.

Albatta, nusxa ko'chirish mashg'ulotlarini tashkil etishda "talabalar ijodkorligini so'ndirib qo'ymaslik" muhim metodik talabdir. Akademik ta'lim jarayonida nusxa ko'chirishga ijodiy reproduksiya sifatida qaraladi, ya'ni talaba original asarga nisbatan o'z mustaqil kuzatuvlari va fikrini ham qo'shib borishi, asarning «ruhini» anglashga intilishi lozim. Faqat shu holda nusxa ko'chirish oddiy mexanik ko'chirish mashqidan haqiqiy badiiy tahlil va ijodiy o'rganish usuliga aylanadi.

Shu kabi, boshqa zamonaviy pedagoglarning ta'kidlashicha, an'anaviy ustoz-shogird va kognitiv ustozlik usullari har ikkisi ham mutaxassislik jarayonlari hamda o'rganishning kontekstli jihatlariga katta e'tibor qaratadi¹. Demak, ta'lim jarayonida har ikki usulning kuchli tomonlarini uyg'unlashtirish pedagogik negizlarni mustahkamlaydi.

Tadqiqot usullari. Mazkur maqolada tasviriy san'atda o'quv va darsdan tashqari mashg'ulotlarni nusxa ko'chirish amaliyoti va zamonaviy pedagogik yondashuvlar sifatida an'anaviy va innovatsion usullar uyg'unligida tashkil etish tahlil qilinadi. Unda, tadqiqot ishlari doirasida tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuviga asoslangan individual ta'limni tashkil

etish bo'yicha muallif tomonidan tayyorlangan darslik, o'quv qo'llanma va monografiyalarda bayon etilgan asosiy g'oyalar va ilmiy-uslubiy yechimlar umumlashtirib beriladi. Mazkur materiallar negizida talabalarning shaxsiy rivojlanish rejasi, amaliy mashg'ulotlar, fanlararo integratsiya va ijodiy muhitni shakllantirish kabi masalalarni hal etishda an'anaviy va innovatsion usullarni uyg'unlikda qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bunda ta'lim jarayonida an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar integratsiyasining pedagogik-nazariy asoslari yoritiladi. Tahlil jarayonida ustoz-shogird orasidagi pedagogik aloqalar, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ijodiy faollikni rag'batlantirish kabi jihatlar o'rganiladi. Bir so'z bilan aytganda, maqolada nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar uyg'unligini ta'minlash orqali badiiy ta'limdagi dolzarb pedagogik nuqtalarni tizimlashtirishga qaratilgan an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar integratsiyasi modeli ishlab chiqishga katta e'tibor qaratildi.

Muhokama va natijalar. Badiiy ta'limda an'anaviy ustoz-shogird usuli bilan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni birga qo'llash barqaror va yuqori natijalarga olib keladi. Ilmiy adabiyotlarga ko'ra, fanni o'rganish jarayonida amaliy mashg'ulot va nazariyaning uyg'unlashuvi muvaffaqiyat kaliti sanaladi². Masalan, badiiy ta'limda boshqa texnologiyalarni raqamli (digital art) vositalari bilan o'zaro uyg'unlikda qo'llash talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshiradi, ammo ular nazariy va amaliy ko'nikmalar bilan birga berilishi kerak.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ko'nikmalar ustuvor bo'lgan ta'lim jarayonida talabalar texnik bazani mustahkam shakllantiradi va tasviriy va amaliy san'atda ijodiy faoliyat "tilini" anglab yetadi. Shu bilan birga, zamonaviy innovatsion usullar (loyihaga asoslangan ta'lim kompyuter grafikasi, onlayn

¹ Cariño K. The Convergence of Traditional and Cognitive Apprenticeship as a Signature Pedagogy: A Case Study of Dance Choreographer, Lim Fei Shen // Signature Pedagogies for Professions in Arts and Design. – Singapore: Springer, 2025. – P. 55–73 link.springer.com link.springer.com.

² Cariño K. The Convergence of Traditional and Cognitive Apprenticeship as a Signature Pedagogy: A Case Study of Dance Choreographer, Lim Fei Shen // Signature Pedagogies for Professions in Arts and Design. – Singapore: Springer, 2025. – P. 55–73 link.springer.com link.springer.com.

resurslar, grafik planshetlar, 3D modellashtirish va boshqa maxsus dasturlar,) talabalarning mustaqil va kreativ fikrlash salohiyatini rivojlantiradi. Masalan, o'quv jarayonidan tashqari to'garaklar, "ijodiy ustaxona", "O'rgatib-o'rganamiz" kabi loyihalarga asoslangan mashg'ulotlar talabalarning amaliyotga ko'proq e'tibor qaratishi hamda o'zgacha texnika va o'rganish uslublarini sinab ko'rishiga imkon beradi. Boshqa tomondan, ustoz-shogird aloqasi talabalarda ta'lim-tarbiya jarayonida ustoz ko'rsatmasidan an'anaviy ijodkorlik sirlarini o'rganishga va mehnat intizomiga e'tiborni kuchaytirishga yordam beradi. Tahlil qilib ko'rilganda, mutaxassislik fanlari ichida va fanlararo integratsiya ta'limni turli bilim sohalarini uyg'unlashtirish bilan birga talabalarda keng ko'lamli bilim hamda ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, an'anaviy ustoz-shogird yondashuvi va innovatsion pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirgan holda tayyorlangan o'quv dasturi talabalarni keng imkoniyatlar bilan ta'minlaydi. Ta'limda nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar uyg'unligini ta'minlash, zamonaviy ta'limning strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, Chirchiq davlat pedagogika universiteti tasviriy san'at yo'nalishida "Ustoz-shogird" an'alarini zamonaviy innovatsion yondashuvlarga uyg'unlashtirish orqali individual ta'limni tashkil etish tajribasi joriy etilgan. Bu jarayon an'anaviy va zamonaviy o'qitish usullari, nazariya va amaliyot integratsiyasi, soha olimlari, tajribali pedagoglar, professional rassomlar, xalq ustalari, talaba hamda maktab o'quvchilari tizimidagi o'zaro hamkorlikka asoslanadi.

Klaster yondashuvi orqali ta'lim integratsiyasini tashkil etishning pedagogik-nazariy asoslarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar bajarish davomida an'anaviy ustoz-shogird an'asi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar integratsiyasi modeli ishlab chiqildi (1-jadval). Ushbu model tajriba sifatida Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti o'quv jarayonida amaliyotga tatbiq etildi.

Taqdim etilgan modelda klaster yondashuvi markaziy nuqta sifatida chiqib, ta'lim mazmun-

ining tizimli tarzda tashkil etilishiga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv doirasida quyidagi asosiy elementlar bir-biri bilan uzviy bog'langan:

1) nazariy bilimlar - pedagogika va mutaxassislik fanlari asoslari, san'at tarixi va uslubiy qonuniyatlarni o'zlashtirish jarayoni;

2) amaliy ko'nikmalar - mashhur rassomlar tajribasini o'rganish, tahlil qilish, rangtasvir, grafika, kompozitsiyadan amaliy ijodiy faoliyatni tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash;

3) mustaqil ta'lim va ijodiy muhit - shaxsiy yondashuv, ijodiy izlanish, portfolio va mustaqil topshiriqlar asosidagi faoliyat;

4) fanlararo uzviylik - tasviriy san'at, pedagogika, psixologiya va axborot texnologiyalarini integratsiya qilish;

5) ustoz-shogird munosabatlari - individual tarbiya, vorisiylik va amaliy mashg'ulotlarda ustoz bilan uzviy hamkorlik;

6) innovatsion texnologiyalar integratsiyasi - raqamli art, AR/VR, multimedia vositalari, onlayn platforma va interaktiv dasturlardan foydalanish;

7) baholash va tahlil - refleksiya, diagnostika, reyting va kreativ yechimlarni baholash usullarini qamrab olgan baholash tizimi.

Tadqiqotning ko'rsatishicha: ushbu model orqali an'anaviy ustoz-shogird an'asi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar integratsiyasini tashkil etish quyidagi natijalarga erishishni ta'minlaydi:

- badiiy ta'lim jarayonida an'anaviy metodlar (ustoz-shogird) va innovatsion usullarni klaster asosida integratsiya qilish imkonini yaratadi.


- ta'lim mazmunining nazariy va amaliy jihatlarini yirik bloklar orqali muvofiqlashtiriladi, bu esa faol, mustaqil, ijodkor talabalarni tayyorlashga yo'naltiriladi.

- fanlararo bog'lanishlar asosida talabaning dunyoqarashi kengayib, ijodiy mulohaza qilish qobiliyati rivojlanadi.

- individual ta'lim trayektoriyasi talabaning qobiliyati va qiziqishidan kelib chiqqan holda shakllanadi, bu esa motivatsiyani kuchaytiradi.

- baholash va tahlil modullari orqali ta'lim samaradorligi muntazam nazoratda bo'ladi va

1-jadval. An'anaviy ustoz-shogird an'anasi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar integratsiyasi modeli



o'zgaruvchan sharoitlarga mos ravishda takomillashib boradi.

Ko'rinib turibdiki, an'anaviy va zamonaviy usullarni uyg'unlashtirgan mazkur model nafaqat san'at ta'limida, balki umumiy pedagogik jarayonda ham yuksak samara beradigan integrativ-ijodiy ta'lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Badiiy ta'limda ustoz-shogird an'anasi va innovatsion yondashuvlar integratsiyasi natijasida talabalarning texnik mahorati va ijodiy erkinligi o'zaro uyg'unlikda rivojlanaadi. Boshqacha aytganda, fanning mazmunini shakllantirishda va o'qitish jarayonini tashkil etishda har ikki usulning afzal tomonlarini uyg'unlikda qo'llash talabalarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shuningdek, zamonaviy sharoitda pedagoglar va rassomlar hamkorligi, fanlar orasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqalar va o'zaro muloqot integratsiyalashgan o'qitish muhitini yaratish uchun xizmat qiladi. U talabani nafaqat bilish, balki yaratish va mulohaza qilish qobiliyatiga ega, yetuk ijodkor sifatida kamol topishga yo'naltiradi.

Xulosa.

1. Mazkur tadqiqot ko'rsatdiki, tasviriy san'at ta'limida an'anaviy ustoz-shogird usulini zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish badiiy ta'lim sifatini oshirishning samarali yo'nalishlaridan biridir.

2. Ustoz-shogird modelining ustuvorligi talabalarda tartib-intizom, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni shakllantirib, mashhur san'at asarlarining kompozitsion-g'oyaviy mazmuni va texnik usullarini o'rganishga xizmat qiladi.

3. Shu bilan birga, innovatsion usullar: axborot texnologiyalari, interaktiv mashg'ulotlar, fanlar o'rtasidagi integratsiya - talabani mustaqil ijodkorlik ko'nikmalarini oshirib, nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlaydi.

4. Tahlillar natijalariga ko'ra, har ikki tamoyilni birlashtirgan holda ishlab chiqilgan klaster usuli talabalarning shaxsiy rivojlanish rejasini muvofiqlashtirish, fanlararo bog'lanishni kuchaytirish va ijodiy muhitni samarali tashkil etish imkoniyatlarini yaratadi. Ayni paytda, badiiy ta'limdagi kafedralar va ustozlar tizimida ana shunday usullar joriy etilishi natijasida badiiy ta'limining nazariy va amaliy jihatlarini barqaror ravishda rivojlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Cariño K. The Convergence of Traditional and Cognitive Apprenticeship as a Signature Pedagogy: A Case Study of Dance Choreographer, Lim Fei Shen // Signature Pedagogies for Professions in Arts and Design. – Singapore: Springer, 2025. – P. 55–73 [link.springer.com](https://link.springer.com/link.springer.com).
2. Костерина, А. Б. Концепт «учитель – ученик» в художественных культурах России, Запада и Востока / А. Б. Костерина, Н. А. Фатеева // Креативность гуманитарного образования: духовно-ценностные и интеллектуальные аспекты : сборник статей [по материалам 11-й Всероссийской научно-практической конференции, 20-21 ноября 2014 г., г. Екатеринбург] / Рос. гос. проф.-пед. ун-т. - Екатеринбург, 2014. - С. 240-247. <https://elar.rsvpu.ru/handle/123456789/5805>;
3. Lektorich B. Innovations in Art Education: Modern Methods and Classical Principles // ArtDependence. – 2023. – (мюаллиф: Brooke Lektorich) artdependence.com.
4. Cariño K. The Convergence of Traditional and Cognitive Apprenticeship as a Signature Pedagogy: A Case Study of Dance Choreographer, Lim Fei Shen // Signature Pedagogies for Professions in Arts and Design. – Singapore: Springer, 2025. – P. 55–73. [link.springer.com](https://link.springer.com/link.springer.com).
5. Renaissance: An Encyclopedia for Students. – Detroit: Charles Scribner's Sons, 2004. – Vol. 1 (мақола: "Art, Education and Training" – [Encyclopedia.com](https://encyclopedia.com) сайти орқали) encyclopedia.com.
6. Сенько Д.С. Метод копирования и его дидактические возможности // Вест. Витеб. гос. ун-та им. П.М. Машерова., 2000. – №3. – С. 62–66.
7. Хайриддин Мурод. Ўзбекистонда олий педагогик таълим: ислохотлар, натижалар, истиқболлар // Янги Ўзбекистон газетаси. – 2021. – №152 (маълумотлар анализи учун) yuz.uz.
8. Шаляпин О.В., Султанов Х.Э. Становление и развитие практики копирования станковой живописи в художественном образовании: Учебное пособие (1 қисм). – М., 2024. – 58 с.
9. Шаляпин О.В., Султанов Х.Э., Зубрилин К.М. Формирование живописного мастерства в процессе копирования художественных произведений: Монография. – М.: Перспектива, 2025. – 160 с.
10. <https://www.encyclopedia.com/humanities/encyclopedias-almanacs-transcripts-and-maps/art-education-and-training#:~:text=Apprenticeship,a%20salary%20from%20the%20master>.